

KASB-HUNAR TERMINLARI O'ZBEK TILI TERMINOLOGIK SISTEMASINING MAXSUS TARMOG'I SIFATIDA

Qodirova Mashhura

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilimizni boyitishga xizmat qiladigan shevalarning amaliy san'at leksikasiga ta'siri o'rGANildi. Bu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib brogan olimlarning fikrlari qiyoslandi. Shuningdek, kasb-hunar terminlarining kelib chiqish tarixi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: sheva, kasb, hunar, termin, terminologiya, so'z, san'at.

Biz bu maqolada kasb-hunar terminlarining o'ziga xos ayrim xususiyatlari, ilmiy-texnik terminlardan farqi va kasb-hunar leksikasida «termin», «so'z-termin» va «terminologiya» terminlarining qo'llanishi haqida ba'zi mulohazalarni bayon etmoqchimiz. Odatda, kasb-hunar leksikasi, xalq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmoqlari leksikasi ustida qalam tebratgan tadqiqotchilar bu masalani o'rtaga tashlaydilar-u, o'zları, negadir, chetlab o'tadilar. Prof. S. Usmonovning o'zbek terminologiyasining ayrim masalalariga bag'ishlangan asari bundan mustasno, albatte.¹ Ma'lumki, xalq xo'jaligining paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, chorvachilik kabi yirik tarmoqlari leksikasini «maxsus terminologiya», «ishlab chiqarish terminologiyasi», «professional-ishlab chiqarish terminologiyasi» deb yuritiladi. Xuddi shunga o'xshash inson mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, negizida ishlab chiqarish jarayoni yotadigan to'qimachilik, gilamchilik, temirchilik, do'ppido'zlik, zargarlik, miskarlik, ganchkorlik, duradgorlik, o'ymakorlik, naqqoshlik-me'morchilik kabi kasb tarmoqlari leksikasiga nisbatan "professional terminologiya"dan ko'ra "professional leksika" "professionalism" terminlarini qo'llash ko'proq ma'qul ko'rildi.

Tilshunoslikda termin va terminologiya masalasi hali uzil-kesil hal etilmagan sohalardan biridir. Termin tushunchasining chegarasi, terminlarning leksik-semantik xususiyatlari, dialektal, professional va chet so'zlar bilan munosabati, ayniqsa chetdan kirgan terminlarning morfologik strukturasi kabilar anchagina aniqlik kiritishni talab etadigan masalalardir.² Terminologiya sohasidagi bunday noaniqliklarni bartaraf etishda rus tilshunos olimlaridan D. S. Lotte, G. O. Vinokur, A. A. Reformatskiy, N. A. Baskakov

¹ С. Усманов. Узбек терминологиясининг баъзи масалалари, Тошкент, Уқитувчи, 1964.

² Т. Турсунова. Узбек тили амалий санъат лексикаси, , Тошкент, Фан, 1978.

VOLUME-2, ISSUE-6

va boshqalarning ishlari, shuningdek, o‘zbek tilshunoslarining so‘nggi yillarda maydonga kelgan terminologiyaga oid qator ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga egadir.

Filologiya fanlari doktori, prof. Said Usmonov «O‘zbek terminologiyasining ba’zi masalalari» asarida terminlarning xarakterli xususiyatlari, umumiste’moldagi so‘zlardan farqlari va vazifalarini yoritadi. Mazkur asarning termin va kasb-hunar leksikasi munosabatiga bag‘ishlangan bo‘limida prof. S. Usmonov kasb-hunar leksikasiga oid so‘z-terminlarning dialektal xususiyatlarga egaligini ta’kidlab, mashhur tilshunos olim Ye. D. Polivanovning “kasb-hunar dialektlar”ni “sinfiy dialektlar” va “yashirin jargonlar” bilan birga ijtimoiy guruhlarga xos dia- lektlarga kiritishni lozim topganligini eslatadi.³

Prof. Said Usmonovning fikricha, kasb-hunar leksikasi ham territorial, ham ijtimoiy dialekt xususiyatlariga ega bo‘lgan, aniqrog‘i “territorial dialekt ichidagi ijtimoiy qatlam leksikasi, ya’ni territorial lug‘at sostavining bir guruhi... yo‘qolib ketgan yoki yo‘qolib borayotgan o‘tmishning tarqoq va kuchsiz hozirgi sanoat imkoniyatlari oldida qoloq bo‘lgan ishlab chiqarish qurollari, ishlab chiqarish protsesslari nomlaridan iboratdir”.⁴ Prof. Said Usmonovning yuqorida keltirilgan mulohazalariga qaraganda, kasb-hunar leksikasining mahalliy xususiyatga, dialektal variantlarga egaligi, kichik bir kasb-hunarga oidligi uni termindan butunlay ajratib turadi va termin sifatida qo‘llanish huquqini bermaydi.

Bu holat filologiya fanlari doktori E. Fozilov va O. Qurbonovlar juda o‘rinli ta’kidlaganidek, terminologik leksika va termin tushunchasi doirasini nihoyatda tor tushunish, terminga faqat yozma shaklda paydo bo‘lgan ilmiy mohiyat kasb etuvchi vosita sifatida qarash bilan bog‘liqdir. Ayrim olimlar ilm-fan, texnika, san’atga doir ilmiy tushunchalarini ifoda etuvchi konkret ma’noli so‘zlarnigina termin hisoblaydilar. Shuningdek, ilmiy texnik terminlarning umumjahon miqyosida rivojlanishi va yozuvda foydalанилиши масалаларидан келиб чиқиб, termin tushunchasidan anqlik, bir ma’nolilik, qisqalik, barqarorlik, internatsionallik kabi qat’iy belgilarni talab etadilar. Aslida terminlar xonadagina yaratiladigan “o‘ta ilmiy”, umumxalq iste’molidagi so‘zlardan mutlaqo ajralib turadigan “alohida” so‘zlar emas, balki ko‘p hollarda umumxalq tilidagi so‘zlar ichidan tanlangan, ma’nolari maxsuslangan, chegaralangan, konkret tushunchalarini anglatadigan so‘z va so‘z birikmalaridir. “Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi va boyiydi. O‘z navbatida u umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi.

³ С. Усманов. Узбек терминологиясининг баъзи масалалари, Тошкент, Укитувчи, 1964.

⁴ С. Усманов. Узбек терминологиясининг баъзи масалалари, Тошкент, Укитувчи, 1964.

Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat vat il taraqqiyotidagi barcha protsesslarni boshidan kechiradi.”⁵ Har bir tilning leksik sostavi shunday xazinadirki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho ma'lumotlar saqlanadi. Xalqning kelib chiqishi va rivojlanishi, hayoti va madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklari, umuminsoniy madaniyatni rivovlantirishdagi roli leksikada o'z aksini topadi. Har qanday terminning aniq, doimiy va konkret ma'nosи o'zi mansub bo'lgan sohada, ma'lum bir terminologik sistemada belgilanadi. Masalan, **gap** so'zining termin sifatidagi ma'nosи tilshunoslik fani doirasida, tilshunoslik terminologiyasida konkretlashadi. Shuningdek, **tahrir** so'zi termin sifatida zardo'zlikda bir xil ma'noni, stilistikada ikkinchi xil ma'noni anglatadi. Shu nuq- tai nazardan terminolog olim Saidfozil Akobirovning quyidagi fikri e'tiborga loyiqdir: "...termin ma'lum bir sohada (yoki ma'lum bir terminologik sistemada) aniq bir sistemaga ega bo'lgan so'zdir". Boshqacha qilib aytganda, termin ma'lum bir terminologik sistemaning a'zosи sifatidagina bir ma'noli so'zdir. Demak, termin ma'nosи ilm-fan, texnika, san'at va ishlab chiqarish tarmoqlari, sohalar bilan chegaralangan konkret tushunchalarни anglatuvchi barqaror so'zlar yoki xam so'z birikmalaridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasb-kor va ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlar qadimdan paydo bo'lgan va shu zaylda bir xil yozish, tartiblashtirish talablaridan holi ravishda taraqqiy etgan. Shunga ko'ra, ularda ilmiy-texnik terminlardan farq qiladigan dialektal xususiyatlar paydo bo'lgan. Ammo bu xususiyatlar yalpi xarakterda bo'lmay, kasb-korning tasviriy san'at bilan aloqador bo'lgan turlarida, ko'pincha nusxa va naqsh turlariga oid nomlarda, ichki shartli nomlar uchrab turadi. Masalan, atlas, tanda, o'rish, arqoq, dastgox, sakkiz tepki, to'rt tepki kabi terminlar to'qimachilikda asrlar davomida bir xilda qo'llanib kelmoqda. Shunday qilib, dialektal leksikadan olingan so'z termin darajasiga ko'tarilishi, dialektal leksika terminlar mavjud bo'lishi mumkin ekan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Т. Турсунова. Узбек тили амалий санъат лексикаси, , Тошкент, Фан, 1978.
2. С. Усманов. Узбек терминологиясининг баъзи масалалари, Тошкент, Уқитувчи, 1964.
3. С. Ф. Акобиров. Тил ва терминология, Тошкент, УзФА, 1968.

⁵ С. Ф. Акобиров. Тил ва терминология, Тошкент, УзФА, 1968.